

## NEOMARKSIZMNING TANQIDIY NAZARIYASI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy Universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Siyosatshunoslik yo'nalishi  
3 - kurs talabasi **Burxonova Bibixonim***

**Reja :**

1. Neomarksizmning kelib chiqish tarixi
2. Marksizm hamda neomarksizmning bir - biridan o'zaro farqi
3. Frankfurt maktabining neomarksizmga bo'lgan ta'siri

1) Neomarksizm tanqidiy siyosatshunoslikda qo'llaniladigan atamalardan biri bo'lib, u 20 - asrning 1 - yarmida fanda vujudga kelgan. U ko'pincha marksizm ichidagi turli ijtimoiy - falsafiy harakatlarga murojaat qilish uchun ishlatiladigan atama bo'lib, Frankfurt maktabi, unga oid amaliy maktab va boshqa intellektual an'analar elementlarini o'z ichiga olgan holda o'zgartiragan yoki kengaytiradigan psixologik tahlil yoki ekzistensializm.

Neomarksizm ta'limoti hodisa sifatida dastlab Yevropada mavjud bo'lgan marksizm asosida rivojlangan, keyinchalik u izlanishlar hamda tadqiqotlar natijasida yangi nazariya sifatida marksizmdan ajralib chiqadi.

Neomarksizm qarashlari XX asrning boshlarida Germaniyaning Frankfurt ijtimoiy tadqiqot institutida ishlagan tadqiqotchilar guruhi asosida shakllangan. Ijtimoiy ma'noda olib qaralsa, neomarksizm nemis sotsiologi Maks Veberning ijtimoiy tengsizlik haqidagi kengaytirilgan qarashlari, xususan ijtimoiy daraja va hokimiyatdan to marksizm falsafasini o'z ichiga oladi. Frankfurt maktabi - zamonaviy industrial jamiyatning tanqidiy nazariyasi, neomarksizmning muhim yo'nalishi. Ushbu maktabning asosiy vakillariga Teodor Adorno, Maks Xorkxaymer, Gerbert Merkus, Erix Fromm, Frans Leopold kirsa, zamonaviy avlodlarga Yurgen Xabermos va Oskar Negt kiradi.

Neomarksizm maktabi vakillari burjua sinfiy jamiyat - totalitar tuzumga aylangan deb hisoblashgan. Ularning fikricha totalitarizm shaxsiy va jamoaviy mavjudlik chegarasini yo'q qilish amaliyotidir. Zamonaviy bugungi kundagi jamiyatlar esa texnokratik bo'lib, ongni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish ommaviy madaniyat va iste'molga sig'inish tufayli sodir bo'ladi.

Neomarksizm Frankfurt maktabi sifatida 1923 - yilda tashkil topgan. Uning birinchi direktori Karl Grumberg bo'lib, u birinchi bor mazkur maktabga

kommunistik va sotsial demokratiyaga ega bo'lgan yoshlarni jamlaydi. Biroq 1933 - yil 13 - mart sanasida Uchinchi Reyxning hokimiyatga kelishi hamda boshqa siyosiy - ijtimoiy sabablar tufayli maktab faoliyati to'xtatiladi. Natijada, Frankfurt maktabi vakillari Amerika Qo'shma Shtatlariga ko'chib ketadi va Kolumbiya maktabida ishlashni boshlashadi. 1950 - yilda mashhur neomarksist T. Adorno va Xorkxaymer Frankfurtga qaytishadi va maktabda yangi yo'nalishni - sotsiologik faoliyatni amalga oshiradi.

Ushbu faoliyatning asosiy tendension yo'nalishlari :

1 - Falsafiy tushunchalarning siyosiy, iqtisodiy, sotsiologiya bilan gibridlashuvi (birlashib rivojlanishi). Chunki ulardan biri o'z mustaqilligini yo'qotsa, ikkinchisi uning mavjudligini tan oladi.

2 - Frankfurt maktabining asosiy mafkuraviy manbalari - marksizm , freydizm, gigilizm hisoblanadi.

3 - Bog'lanish qoidasi - sinfiy kurash kategoriyasi Marksdan olingan bo'lishiga qaramay , begonalashish nafaqat sinfit qarama - qarshiliklarga, balki obyektiv moddiy xarakterdadir.

4 - Inson g'oyasi - mazkur g'oya Freyd nazariyalariga asoslangan bo'lib , zavqlanish g'oyasi shaxsiyatni nazariy qarash imkoniyatini beradi va ijtimoiy muhitga qarshi kurashishda inson instinktlarini bostiradi. Bu tamoyil insonni jamiyatga bo'ysundiruvchi voqelik tamoyilidir.

5 - Dialetika qoidasi - dialektik Gegelning materializm inkorni inkor qilish g'oyasiga asoslansa , uning o'rnini mutlaq inkor egallaydi. Bu pessimistik fikrdir.

6 - Ratsionallik konsepsiyasi - Maks Veber an'anaviy tafakkurni tanqid qilish g'oyasi. Tanqidiy nazariya eng avvalo ijtimoiy va intellektual hayotning turli tomonlariga nazar qaratadi.

Bugungi kunda Frankfurt maktabi G'arb madaniyati asosiy elementlarni tashkil etadi. Masalan hokimiyat, oila, urf - odatlar, jinsiy cheklov shular jumlasidandir.

2) Marksizm falsafasi yoki Marksist nazariyasi falsafaning Karl Marksni materializmga bo'lgan qarashlarini hamda marksistlar tomonidan yozilgan ilmiy ishlarni o'z ichiga oladi. Marksist falsafasi esa bir necha turlarga bo'linishi mumkin. Misol uchun G'arbiy Marksizmdan sobiq SSSRning falsafasi rasman tashkil topgan. U esa 1930 - yillarda Marksning dialektik materializmga oid qat'iy tadbirlarini aks ettirgan. Marksist falsafasi falsafa sohasining sub - yo'nalishi hisoblanmasada, Marksist teoriyasining estetik , etnik, ontologik, epistemologik, ijtimoiy falsafa, siyosiy falsafa , ilmiy falsafa hamda tarixiy falsafa yo'nalishlariga ajratiladi.

Marksizmning falsafadagi asosiy xarakteristikalaridan biri bu uning materializm va uning hokimiyatdagi o'zni , aloqalarini amaliyotda ishlash jarayonlarini kuzatishdan iborat bo'ladi. Shuningdek , ushbu teoriya proletariat -

ishchi qatlamning burjuaziya qatlamidan aziyay chekishi va shunga oid holatlarni ham o'rganadi.

Neomarksizm nazariyasi - obyektini radikal rad etish, raqobatni iqtisodiyot, sotsializmning o'tish strategiyasini aniqlash kabi nazariyalari bilan tanqidiy tadqiqotlar olib borsada, asosiy maqsadi muayyan bir g'oyani dogmatik tabiatini va hukmron bo'lishiga qarshi chiqishdir.

Neomarksizmga misol qilib analitik marksizm, Fransiyaning struktural marksizmi, kritik nazariyalar, madaniy izlanishlar hamda feminizmning ba'zi bir ko'rinishlari kiradi.

Shuningdek marksistik teoriyaning ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda yetarli darajada murojaat qilmaganligi neomarksizmning shakllanishiga sabab bo'lgan. Birinchi jahon urushidan so'ng tashkil topgan Frankfurt maktabi vakillari dastlab o'zlarini neomarksistlar deb atashmagan bo'lishsada, 20 - asrning oxiriga kelib, neomarksizm va boshqa marksizm ta'limotlari demokratik hamda kapitalistik mamlakatlarda ikki xil ma'noni anglatadigan atamaga aylandi. Bu esa sotsialistik davlatlarga xos salbiy ma'noni bildirayotgan edi. Shu sababli, sotsial ijtimoiy nazariyachilar o'z vaqtida anglashilmovchiliklarni oldini olish maqsadida o'zlarini asta - sekin neomarksizm atamasidan ajratishni boshladilar.

3) Neomarksizmning tashkil topishi hamda shakllanishida Frankfurt maktabining ahamiyati katta bo'lib, hozirgi kungacha o'nlab neomarksist olimlarni hamda yuzlab nazariya hamda g'oyalarning fanga kirib kelishi, qo'llanishida muhim o'rin tutadi. Ko'plab mashhur neomarksistlar shu jumladan Gerbert Markus va bir qancha maktab a'zolari tarixiy jihatdan sotsiolog va psixologlar bo'lib kelishgan.

Tanqidiy siyosatshunoslikda neomarksizm 20 - asrning 1 - yarmidan vujudga kelib u :

1 - marksistik tafakkur doirasidan chiqish ;

2 - iqtisodiy deteminizm tendensiyasidan norozi bo'lgan nemis neomarksistlari guruhidir.

Neomarksizm o'zining ideologik asoslarini marksizmdan olsada, ularning o'rtasida g'oyaviy tafovutlar ham mavjud. Chunki neomarksizm mutafakkirlari o'zlaridan oldin yashab o'tgan marksizm tarafdorlari uchragan muammo - masalalarga guvoh bo'lgan holda sotsialistik hamda kapitalistik jamiyatlar orasidagi yutuq va kamchiliklarni o'rganishgan.

Neomarksizmda ozodlik - qullik yoki ma'lum bir ko'rinishdagi qaramlikning mavjud emasligi to'g'risida neomarksist olim Koxen o'zining asarlarida yozib qoldirgan .



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Neo-Marxism>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neo-marksizm>
3. <https://www.sciencedirect.com/topics/social-sciences/neo-marxism>

